

**“O'zbekiston temir yo'llari” AJ
yagona aksiyadorining
2020 yil «14» sentyabrdagi
58-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”**

**“O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati
USTAVI**

(Yangi taxrirda)

I Bo`lim. Umumiy qoidalar

1. “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o`rinlarda -Jamiyat deb ataladi) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston temir yo'llari” Davlat-aktsionerlik kompaniyasini tuzish to`g`risida” 1994 yil 7 noyabrdagi PF-982-son Farmoni bilan tashkil etilgan.

2. Jamiyat O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Temir yo`l transportini monopoliyadan chiqarish va aktsiyalashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2001 yil 2 martdagi PF-2815-son Farmoniga muvofiq ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

3. O`zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 apreldagi 223-1-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi Qonuniga muvofiq, Jamiyatning huquqiy holati aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Jamiyat tijorat tashkiloti hisoblanadi.

4. Jamiyatni tashkil etish, faoliyat yuritishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog`liq munosabatlar O`zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi Qonuni, “Temir yo`l transporti to`g`risida”gi Qonuni va O`zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5. Jamiyatning nomi:

O`zbek tilida - “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati (qisqartirilgan nomi - “O'zbekiston temir yo'llari” AJ) yoki kirill xarflarida “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти (qisqartirilgan nomi - “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ); rus tilida - Акционерное общество «Узбекистон темир йуллари» (qisqartirilgan nomi - АО «Узбекистон темир йуллари») yoki Акционерное общество «Узбекские железные дороги» (qisqartirilgan nomi – АО “Узбекские железные дороги”); ingliz tilida - Joint stock company “O'zbekiston temir yo'llari” (qisqartirilgan nomi - JSC “O'zbekiston temir yo'llari”) yoki Joint stock company “Uzbekistan railways” (qisqartirilgan nomi – JSC “Uzbekistan railways”).

6. Jamiyat xalqaro va aralash yo`nalishlarda yo`lovchilar va yuklar tashishni tashkil etishda chet el temir yo`l ma`muriyatlari bilan munosabatlarda “O`zbekiston temir yo'llari” (Узбекские железные дороги) deb nomlangan yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Jamiyatning telegraf shifri-“UTI”.

7. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, uzining mustaqil balansida aks ettiriladigan alohida mulkka, shu jumladan uzining ustav fondiga (kapitaliga) berilgan mol-mulkka, bank muassasalarida hisob raqamlariga, jumladan valyuta hisob raqamlariga, O`zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasviri tushirilgan dumaloq muhrga, davlat tilida yozilgan emblema (logotip) va shtamlarga ega.

8. Jamiyat temir yo`l sohasida rahbarlik qilish va xujalik ishlarini tartibga solishni amalga oshiradi. Jamiyat temir yo`llari tarmog`ini rivojlantirish va takomillashtirish borasida yagona texnika siyosatini amalga oshiradi.

9. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga O`zbekiston Respublikasi Hukumati, shu jumladan aksiyador qarori bilan tasdiqlangan temir yo`l transporti mintaqaviy temir yo`l uzellari, boshqarmalari, markazlari, direktsiyalari, korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va tarkibiy bulinmalari kiradi.

10. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlar, shuningdek chet el yuridik shaxslari kirishi mumkin.

11. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda korxonalar, tashkilot va muassasalar, jumladan filiallar hamda vakolatxonalar tashkil etishi mumkin.

12. Jamiyat o`z faoliyatini amalga oshirishda, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, temir yo`l qatnovi xavfsizligini ta`minlash masalalarida O`zbekiston Respublikasi temir yo`llarda yuk va yo`lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasining qarorlariga va mazkur Ustavga amal qiladi.

13. Mazkur Ustav bilan tartibga solinmagan huquqiy munosabatlar O`zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik va me`yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek xalqaro bitimlar va shartnomalar bilan tartibga solinadi.

14. Jamiyat xodimlari Jamiyat shaxsiy tarkibining xizmat kiyimi To`g`risidagi Nizomda belgilangan xizmat kiyimiga egadirlar.

15. Jamiyatning joylashgan (markaziy ma`muriyati) manzili: O`zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Taras Shevchenko kuchasi, 7-uy, pochta indeksi - 100060.

16. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzrailway.uz.

II bulim. Jamiyatning asosiy vazifalari, hamda funktsiyalari

17. Jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida temir yo`l transportining barqaror va samarali ishlashini, qatnovlar xavfsizligini, kursatiladigan transport xizmatlari sifatini oshirishni, jumladan xizmat kursatish talab darajasida bo`lgan boshqa yuk tashuvchilar bilan birgalikda ta`minlash, iste`molchilarga ishlab chiqarish, savdo, shu jumladan ulgurji savdo xizmatlari

kursatish, elektr energiyasi sotish, sayyohlik va boshqa xizmatlar kursatish, bunda tashishlarning maqbul muddatlarini, hamda yo`lovchilar sog`ligi va hayotining saqlanishini, shu jumladan tashilayotgan yuklar butligini ta`minlash;

- temir yo`llarning yagona ishlab chiqarish infratuzilmasini va markazlashgan dispecherlik boshqaruvini saqlash va rivojlantirish;
- jahon andozalari darajasida xizmat kursatish, transport xizmatlari bozorida temir yo`l transportining raqobatbardoshligini oshirish;
- yuklar, yo`lovchilar, pochta va bagajlar tashish sohasidagi sarfxarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat kursatish sifatini oshirishni hisobga olgan holda belgilangan tartibda tarif siyosatini amalga oshirish;
- temir yo`l transportida yuk va yo`lovchi tashish bozori kon'yunkturasini o`rganish, rivojlanishi va joylashtirilishini prognozlash;
- temir yo`l tarmoqlarining ishlari barqaror va o`tkazish imkoniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tegishli temir yo`l transporta ob'ektlarini safarbarlik tayyorgarligini, davlat siri bulgan ma'lumotlarni oshkor etilmasligini ta`minlash;
- atrof muhitni asrash qoidalariga rioya qilishni ta`minlash;
- temir yul transporti sohasida yagona ilmiy-texnik, innovatsion va investitsiyaviy siyosatni yuritish;
- yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini, temir yo`l transportining kompleks rivojlanishini tashkil etish;
- temir yo`l tarmoqlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yanada rivojlantirish va xizmat kursatish imkoniyatlarini oshirish, yangi temir yo`l liniyalari, ko`priklar, tunnel va boshqa sun'iy inshootlar qurish, ularni rekonstruktsiya qilish va texnik qayta qurollantirish;
- harakatlanuvchi tarkibni, yo`l xujaligini, elektr ta`minoti tizimini, signalizatsiya va aloqa tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirish uchun investitsiyalar, jumladan chet el investitsiyalarini keng joriy etish, shuningdek, tarmoq sanoat korxonalarini texnologik jihatdan qayta jihozlash, hamda ilgor texnologiyalar va zamonaviy menejment usullarini keng joriy etish;
- Jamiyatning xalqaro hamkorligi va tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, marketing tadqiqotlarini uyushtirish, Jamiyat korxonalariga axborot xizmatlari kursatish, tashqi va ichki bozorlarda ularning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini hal etishga ko`maklashish;
- Jamiyat va O`zbekistan Respublikasining sanoat korxonalarini bazasida ta`mirlash-ekspluatatsiya va rivojlanish ehtiyojlari uchun import o`rnini bosuvchi mahsulotlar, ehtiyot qismlar, detallar, jihozlar ishlab chiqarishni yo`lga quyish va rivojlantirish;

- iqtisodiy munosabatlarni o`rnatishning asosiy tamoyillari, qoidalari va uslublarini ishlab chiqish, hamda ularni Jamiyat korxonalarida amalga oshirish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

18. Jamiyat belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalar bajarilishini ta'minlaydi:

a) temir yo`l orqali tashish jarayonini boshqarishni tashkil etish sohasida: tashish jarayonining markazlashgan tezkor boshqaruvini tashkil etish, poezdlarning xarakterlanish jadvalini, xarakterlanuvchi tarkibning ish me'yorlarini va Jamiyat buyicha yuk tashish prognoz rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash va ijrosini ta'minlash;

- tashish shartlariga doir yagona normativ xujjatlarni, xarakterlanuvchi tarkibdan foydalanish me'yorlari buyicha yagona me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish, ulardan foydalanishni taxlil etish, yuk va yo`lovchi vagonlaridan foydalanishga tuzatishlar kiritish va nazorat qilish;

- favqulodda vaziyatlarda xavfli yuklarni tashish qoidasi talablari asosida yuk ortishni, tushirishni tartibga solish va poezdlar xarakterlanishini tashkil etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng qo`llagan holda tashish jarayoni va dispetcherlik xizmatini tashkil etishning yagona tamoyillarini ishlab chiqish;

b) iqtisodiyot va moliya sohasida:

temir yo`l transportini rivojlantirishning davlat va davlatlararo dasturlari loyixalarini, asosiy sanoat va pudratchilik faoliyatida, shuningdek ijtimoiy va atrof-muxitni muxofaza qilish soxalarida ishlab-chiqarishning iqtisodiy va moliyaviy ko`rsatkichlariga doir yillik xamda istiqbolli prognozlarni ishlab chiqish;

temir yo`l transportida yuk va yo`lovchilar tashish sohasida marketing tadqiqotlarini tashkil etish, kelgusida temir yo`l transporta ob'ektlarini rivojlantirish va joylashtirishga doir yillik va istiqbolli prognozlar xamda jadvallar, temir yul transportining tashish va ishlarni bajarish imkoniyatlarini oshirishga doir kompleks chora-tadbirlar buyicha takliflar ishlab chiqish;

mukammal va joriy ta'mirlashni, Jamiyatning mol-mulkini saqlashni rejalashtirish va tashkil etish;

O`zbekistan Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, davlatlararo va xukumatlararo kelishuvlarga muvofik yuk, yo`lovchilar, pochta, bagaj va yuk bagaj tashish tariflari sohasida kelishilgan siyosatni amalga oshirish;

amaldagi qonunchilikka muvofiq, Jamiyat korxonalarida va xizmatlaridan foydalanuvchilar o`rtasida o`zaro moliyaviy xisob-kitoblarni, boshqa davlat temir yo`llari bilan xisob-kitoblarni amalga oshirish, buxgalterlik va statistika xisobi va xisobotlarini tashkil etish, O`zbekistan Respublikasi buxgalteriya xisobining milliy standartlariga rioya etish, Jamiyat korxonalarida auditorlik faoliyatini yuritish, soliqlarni va majburiy to`lovlarni xisoblash va to`lash;

yuk, pochta, bagaj, yuk bagaj, maxsulot sotish, ko`rsatilgan ish va xizmat, yo`lovchilarni tashishdan tushadigan daromadlarni to`lik va o`z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish, Jamiyatning moliyaviy xolatini mustaxkamlash, xarajatlarni kamaytirish va foydani (daromad) oshirish;

Jamiyat korxonalari o`rtasidagi iqsodiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy tamoyil, qoida va uslublarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Jamiyat boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan normativlarga muvofiq tuziladigan fondlar va zaxiralarni, shu jumladan, valyuta fondini tashkil etish, shuningdek temir yo`l transportini rivojlantirishga oid ustuvor ilmiy tadqiqot dasturlarini moliyalashtirish uchun belgilangan tartibda fondlarni shakllantirish;

Jamiyat faoliyatini aks ettiruvchi reklama va boshqa turdagi adabiyotlarni nashr etish;

xodimlarning mehnat xaqi, shuningdek boshqa turdagi daromadlarining shakli, tizimi va xajmini belgilangan tartibda aniqlash;

ijtimoiy rivojlantirish buyicha Jamiyat xodimlarining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

tashishdan olinadigan daromadlarni markazlashtirilgan tartibda Jamiyatning aloxida asosiy daromad xisob raqamida jamlash va uni kelgusida temir yo`l orqali tashishda ishtirok etgan Jamiyat bo`linmalari o`rtasida amaldagi me`yoriy-xukukiy xujjatlar asosida taksimlash;

“Uzdavtemiryo`lnazorat” davlat inspeksiyasi ta`minoti uchun tasdiqlangan smetaga muvofik, temir yo`l orqali tashishdan olingan daromadlardan majburiy to`lovlarni amalga oshirish;

v) texnika siyosati sohasida:

Jamiyat korxonalari bilan birga mutlaqo yangi texnik vositalar, texnologiyalar va materiallarni yaratish, ulardan foydalanishga doir ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining ustuvor yunalishlarini belgilash, ushbu ishlarni moliyalashtirish;

Texnologik jarayolarni mukammallashtirish, ishlab chikarishning texnik darajasini doimiy ravishda oshirib borish;

Maxsulotlarni metrologiya, standartlashtirish va unifikatsiyalashtirish, sertifikatlash va sifatni boshqarish, intellektual mulk ishlarini tashkil etish, ilmiy-texnikaviy ma`lumotlar va ilgor tajribani ommalashtirish;

g) moddiy-texnika ta`minoti sohasida:

temir yo`l transportining moddiy-texnika va yoqilg`i-energetika resurslariga bulgan extiyojini aniqlash, temir yo`l orqali tashish jarayonining ushbu resurslar bilan ta`minlanishini tashkil qilish, ulgurji va chakana savdo qilish, shuningdek aloqador vazirliklar, uyushmalar va idoralar bilan birgalikda davlat extiyojlari uchun muljallangan maxsulotlar tarkibida temir yo`l transporti uchun yetkazib beriladigan maxsulotlar bo`yicha buyurtmalarni shakllantirish, Jamiyat korxonalarini markazlashtirilgan xolda tartibga solinadigan nomenklatura buyicha maxsulot bilan ta`minlash;

tabiiy ofatlar, transport xalokatlari va boshqa kutilmagan voqealar oqibatlarini bartaraf etish uchun asosiy moddiy-texnika turlari zaxiralarini yaratish. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun muljallangan moliyaviy va moddiy resurslarning idoraviy zaxiralari Jamiyat mablag`lari xisobidan, shuningdek, moliyaviy va moddiy resurslarning ob`ektiv zaxirasi Jamiyat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining o`z mablag`lari xisobidan tashkil etiladi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun muljallangan moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarining nomenklaturasi va xajmini belgilash;

Jamiyat extiyojlari uchun moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar bilan mustaxkam aloqa va xamkorlikni tashkil etish;
resurslar va energiya ta`minoti ishlarini tashkil etish;
temir yo`l transportining safarbarlik tayyorligini ta`minlash va aloxida davrda ishlash uchun moddiy resurslarni shakllantirish;

d) tashqi itistisodiy faoliyat soxasida:

boshqa davlat temir yo`l ma`muriyatlari, chet el tashkilotlari va kompaniyalari bilan o`rnatilgan tartibda yuk va yo`lovchilar tashish bo`yicha kelishuvlar yoki shartnomalar tuzish;

xalqaro transport aloqalari va logistikani rivojlantirish;

O`zbekistan Respublikasi Hukumatining topshirig`iga asosan va uning nomidan xalqaro temir yo`l transporti tashkilotlarida ishtirok etish;

xorijiy xamkorlar bilan munosabatlarda, yo`lovchi va tashqi yuklarni tashish bilan bogliq bulgan masalalarni xal etuvchi xalqaro transport xuquqi sub`ekti sifatida ishtirok etadi;

xalqaro temir yo`l ma`muriyatlarida vakolatli vakillari va/yoki o`z vakolatxonalariga ega bulishi yoki tuzishi mumkin;

chet el davlatlarining tegishli boshqaruv organlari bilan temir yo`l transporti faoliyatiga doir kelishuvlar tuzish;

Jamiyat xodimlarining chet ellarga chiqishi uchun belgilangan tartibda pasport-viza xujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, amaldagi qonunchilikda taqiqlanmagan tashqi savdoga oid kredit va boshqa bitimlarni tuzish, belgilangan tartibda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish;

e) investitsiya siyosati soxasida:

Jamiyat investitsiya siyosatining, shu jumladan markazlashtirilgan manbalar xisobidan bulgan investitsiyalarning uzoq muddatli va o`rta muddatli prognozlarini ishlab chiqish;

barcha moliyalash manbalari xisobidan Jamiyatning yillik investitsiya dasturini shakllantirish;

barcha moliyalash manbalari xisobidan amalga oshiriladigan yangi korxonalarni qurish, faoliyat kursatuvchi korxonalarni va temir yo`l transporti ob`ektlarini rekonstruktsiya qilish va texnika bilan qayta jixozlashni kengaytirish,

asosiy vositalarni xarid qilish, ulardan foydalanish muddatini uzaytirish orqali mukammal-tiklash, ta'mirlash va modernizatsiyalash loyixalarini boshqarish;

j) kadrlar, mehnat va ijtimoiy masalalar sohasida:

Jamiyat xodimlarini tanlash va joylashtirish, kasbiy o'qish sharoitlari, mas'uliyat, rag'batlantirish darajasi va ijtimoiy muhofaza qilish tizimlarini belgilash;

Jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqib kadrlarni o'qitish tizimini tashkil etish;

Jamiyatning ijtimoiy sohasidagi o'quv yurtlari va muassasalarining moddiy bazasini ta'minlash va rivojlantirish;

mutaxassislarni respublika va xorijiy mamlakatlar o'quv muassasalari va korxonalarida tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, shuningdek ularning ish o'rganishlarini (stajirovkalarini) ta'minlash;

samarali kadrlar siyosatini olib borish;

Jamiyatning poezdlar harakati va yo'lovchilarga xizmat kursatish bilan bevosita bog'liq alohida toifadagi xodimlari uchun, amaldagi qonunchilikka muvofiq, mehnat sharoitlari xususiyatlarini, ish vaqti va dam olish vaqti tartibini belgilash;

Jamiyatda korporativ etika qoidalariga rioya qilish.

19. Jamiyat yuqorida qayd etilganlardan tashqari yana quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

temir yo'l transportidan foydalanish qoidalarini talablarining bajarilishini nazorat qiladi, poezdlarning harakat xavfsizligi, temir yo'l transporti ob'ektlarining butligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuradi, harakat xavfsizligi buzilishi sabablarini tahlil qiladi, halokatlar, avariya, ekologik ofatlarning oldini olish chora-tadbirlarini ko'radi, yuqoridarajada xatarli hududlarda bo'lish va ishlarni amalga oshirish qoidalarini ishlab chiqadi;

yo'lovchilar va yuklarni sug'urtalash ishlarini amalga oshiradi;

davlat hududida, to'g'ridan-to'g'ri va qo'shma yo'nalishlarda tashishlarni rivojlantirish, shuningdek boshqa transport turlari bilan hamkorlikda ishlash buyicha takliflar ishlab chiqadi;

idoraviy mansubligidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar va tashkilotlarga tegishli harakatlanuvchi tarkibning umumiy foydalanish temir yo'llariga kirishi tartibini belgilaydi;

sanoat korxonalarida temir yo'llar uchun yuboriladigan temir yo'l texnikasi va boshqa mahsulotlarni belgilangan tartibda qabul qilishni (texnik inspeksiya) tashkil qiladi;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, temir yo'l yaqinidagi ajratilgan yo'laklar hududida yerlardan foydalanish, u yerda bino va inshootlar qurish tartibini belgilaydi;

tegishli qurilish me'yorlari va qoidalarini muvofiqlashtiradi;

umumiy foydalanishdagi temir yo`l va qurilmalarni temir yo`l bilan kesishadigan uzatish quvurlari, aloqa, elektr energiyasi uzatish liniyalari va boshqa kommunikatsiyalar, shoxobcha yo`llar bilan tutashtirish, kesishish shartlarini, unga kirish yo`llarini, shuningdek umumfoydalanishdagi temir yo`llar va inshootlardan, xavfli va maxsus moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, yuklash, transportda tashish va tushirish bilan bogliq inshootlardan temir yo`l va qurilmalargacha bo`lgan eng kam masofa shartlarini belgilaydi;

temir yo`lni texnikaviy tasarruf etish qoidalari buyicha bilimlarni imtihondan o`tkazish va tekshirish tartibini, temir yo`l transportidan foydalanish qoidalarini, yuk ortish va yukni mustahkamlashning texnikaviy shartlarini, Jamiyat xodimlarining boshda me`yoriy hujjatlarini, umumiy foydalanishdagi yo`llarda lokomotivni sinash tartibi va boshqarish huquqiga guvohnoma berish tartibini, Jamiyat korxonalarining lokomotiv mashinistlariga daraja berish tartibini belgilaydi;

temir yo`l transportidagi elektr, issiqlik va issiqlik-energetika moslamalarida, shuningdek sig`imli idishlarda bo`sim ostida ishlovchilarning foydalanish qoidalariga to`gri rioya etishlarini tashkil qiladi;

poezdlarning harakati bilan bogliq bo`lgan, shuningdek zararli, noqulay mehnat sharoiti ta`siriga uchraydigan xodimlarni, Jamiyat tasarrufidagi ta`lim muassalari o`quvchilarini, talabalarini va abiturentlarni tibbiy ogohlantirish va ko`rikdan o`tkazish tartibini belgilaydi;

temir yo`l transportining safarbarlik tayyorgarligi va fuqarolik mudofaasi buyicha ishlarni tashkillashtiradi, aholini va huquqlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qiladi, safarbarlik tayyorgarligining yagona metodikasini ishlab chiqishni amalga oshiradi, manfaatdor tashkilotlar bilan muhim paytda tashishlarni tashkil etish va bajarish masalalari yuzasidan hamkorlikni, safarbarlik davlat zaxirasi va mahsus zaxirada texnik vositalar va moddiy boyliklarning saqlanishini ta`minlaydi;

temir yo`l transporta vositalaridan falokatlarisiz foydalanish, xavfli va maxsus yuklarni tashish jarayonida xavfsizlikni ta`minlash choratadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

davlat sirlarini va xizmatga doir ma`lumotlarni oshkor etishdan muhofaza qilish buyicha zarur chora-tadbirlar ko`rilishini ta`minlaydi;

temir yo`l transporti sohasida ma`lumot berish xizmatlarini amalga oshirish;

qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshirish.

III Bo`lim. Jamiyatning ustav fondi (kapitali). Uni ko`paytirish yoki kamaytirish tartibi. Jamiyatning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog`ozlari

20. Davlat korxonasi negizida tashkil etilgan "O`zbekistan temir yo`llari" aksiyadorlik jamiyati qayta tashkil etish paytigacha davlat korxonasiga tegishli

boʻlgan mavjud mulk, pul mablaglari va boshda moliyaviy resurslar, shuningdek qarzlarning toʻliq huquqiy vorisi hisoblanadi.

21. Jamiyat ustav fondining (kapitalining) dastlabki miqdori Jamiyat mulkini baholash asosida Oʻzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 3 martdagi 108-son qarori, Oʻzbekistan Respublikasi Davlat mulki Qoʻmitasining 2001 yil 20 avgustdagi 239 k-PO buyrugʻi asosida belgilangan.

22. Jamiyat ustav fondi (kapitali)ning miqdori 4 009 518 075 200 soʻm boʻlib, 9 324 460 640 ta oddiy aksiyalarga bulingan.

23. Oddiy aksiyaning nominal qiymati 430 soʻmni tashkil etadi.

24. Jamiyat aksiyalari davlat mulki xisoblanadi va sotilishi yoki boshqacha tarzda oʻzgaga berilishi, garovga koʻyilishi mumkin emas, shuning uchun ular ikkilamchi qimmatli kogʻozlar chiqarish uchun taʼminlashga xizmat qilishi mumkin emas.

25. Jamiyat ustav fondi (kapitali) qoʻshimcha aksiyalar joylashtirish yoʻli bilan koʻpaytirilishi mumkin.

26. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) koʻpaytirish (aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash, aksiyalar emissiyasi risolasi va ularni chiqarish) va bu toʻgʻrida mazkur ustavga tegishli oʻzgartirish kiritish xaqidagi qarorni Jamiyat aksiyadori kabul kiladi. Ushbu masala boʻyicha Jamiyat Kengashi (kuzatuv kengashi) yigʻilishi oʻtkazilmaydi.

27. Agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan boʻlsa, qoʻshimcha aksiyalar yopiq obuna usulida fakat Davlatga joylashtirilishi mumkin.

28. Qushimcha ravishda chiqarilgan aksiyalar uni chiqarish toʻgʻrisidagi qarorda belgilangan, lekin davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan paytdan eʼtiboran bir yildan ortiq boʻlmagan muddatda joylashtirilishi lozim.

29. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) oshirish uchun oddiy, eʼlon qilingan nominal qiymati 430 soʻm boʻlgan 11 403 327 085 dona - umumiy qiymati 4 903 430 646 550 soʻmga qoʻshimcha aksiyalarni joylashtirish xuquqiga ega.

30. Eʼlon qilingan aksiyalarning umumiy soni doirasida chiqarishda va joylashtirishda aksiyalarning sotib olingan qismi Jamiyat ustav fondiga (kapitaliga) oʻtqaziladi.

31. Jamiyatning ustav fondi (kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yoʻli bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan xolda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yoʻli bilan kamaytirilishi mumkin.

32. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) kamaytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisidagi qaror Jamiyat Kengashining (kuzatuv kengashining) yigʻilishini oʻtkazmasdan, Jamiyat aksiyadori tomonidan qabul qilinadi.

33. Jamiyatda ustav fondining (kapitalining) 25 foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi.

34. Jamiyatning zaxira fondi xar yili sof foydadan yillik majburiy to'lovlar ajratish yo'li bilan ustav fondining (kapitalning) 25 foiziga yetmaguncha shakllantirib boriladi.

35. Zaxira fondiga ajratmalarning yillik xajmi Jamiyat daromadining 5 foizidan kam bulmasligi lozim.

36. Jamiyatning zaxira fondidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

37. Jamiyat Kengashining qaroriga binoan boshqa fondlar xam tashkil etilishi mumkin.

IV bo`lim. Jamiyatning xuquqlari

38. Jamiyat Ustavda belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarish maqsadida quyidagi xuquqlarga ega:

- O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va axolisi extiyojlaridan kelib chiqqan xolda davlat buyurtmalari va bevosita shartnomalar (kontraktlar) asosida sotiladigan maxsulot, ishlar va xizmatlar xajmini mustaqil ravishda belgilash;
- uz nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarga egalik qilish va ularni amalga oshirish, zimmasiga majburiyatlar olish, sudda da'vogar va javobgar bulish;
- belgilangan tartibda bo`linmalar, markazlar, firmalar, korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, qo`shma korxonalar tashkil etish, turli respublikadagi va xalqaro tashkilotlar va birlashmalarga a'zo bulish;
- qonunchilikda belgilangan tartibda aksiya va boshqa qimmatli qog`ozlarini chiqarish va joylashtirish, shuningdek O`zbekiston Respublikasi xududida va undan tashqarida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va boshqa qimmatli qog`ozlarini sotib olish;
- Jamiyatning ishchilariga va boshqa shaxslarga, jumladan zayom ajratgan xolda uy-joylar qurish, sotib olish va ularni belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga sotish.

V- Bo`lim. Jamiyat faoliyatini boshqarish.

39. Jamiyatning aksiyadori, kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organi Jamiyatning boshqaruv organlaridir.

40. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga muvofiq, Jamiyatda aksiyadorning umumiy yig`ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo`yicha qarorlar Jamiyatning yagona aksiyadori tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi, xamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Jamiyatda aksiyadorning umumiy yig`ilishi o`tkazilmaydi.

41. Jamiyatning Kengashi - kuzatuv kengashi (keyingi o`rinlarda Kengash deb ataladi) funksiyalarini bajaradi. Kengash 6 kishidan iborat.

42. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyatning ijro etuvchi organi xisoblanadi, u 8 kishidan iborat.

43. Jamiyat Boshqaruvi raisi qonunchilikda belgilangan tartibda tanlov asosida tayinlanadi. Jamiyat Boshqaruvi raisi lavozimiga chet ellik menedjer tayinlanishi mumkin.

44. Jamiyat Boshqaruvi a'zolari qonunchilikda belgilangan tartibda tayinlanadi.

45. Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o'rtasidagi munosabatlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VI- Bo'lim. Jamiyat aksiyadorining vakolatlari.

46. Jamiyat aksiyadorining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, jumladan Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) oshirish, kamaytirish va e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish, shuningdek Jamiyatning yangi taxrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash, xamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- E'lon qilingan aksiyalarning eng kup miqdorini belgilash;
- Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini), ko'paytirish yoki kamaytirish;
- Jamiyatning o'z aksiyalarini olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- Jamiyatning moliya-xujalik faoliyatini nazorat qilish uchun 3 kishidan iborat taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, shuningdek taftish komissiyasi tugrisidagi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning yillik xisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan xolda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasditqlash;
- belgilangan tartibda tayinlanganidan so'ng, boshqaruv raisi va a'zolari bilan mexnat shartnomasini Jamiyat nomidan tuzish;
- Jamiyat boshqaruviga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'grisida, jumladan Jamiyatning moliyaviy xisobotini Xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiq tashqi audit qilish buyicha auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan xaqning eng ko'p miqdorini belgilash xaqida qaror qabul qilish;
- Jamiyat taftish komissiyasining o'z vakolati doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, jumladan jamiyatni boshqarishda qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etish buyicha xulosalarini eshitish;

- Jamiyat nomidan Jamiyat ichki audit xizmati xodimlari belgilangan tartibda tayinlanganidan so`ng mexnat shartnomasini tuzish;
- Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari bildirgilari (xisobotlari) shakl va tarkibiga talablarni belgilash;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to`g`risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qogozlarning xosilalarini chiqarish to`grisida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to`g`risida qaror qabul qilish;
- “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to`grisida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog`ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
- Jamiyat aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish yo`grisida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan xolatlarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to`g`risida qaror qabul qilish;
- dividendlarni miqdori, to`lash shakli va tartibi bo`yicha qaror qabul qilish;
- qonun xujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni xal etish;

VII- Bo`lim. Jamiyat Kengashi.

47. Jamiyat Kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo`nalishlarini belgilash;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma`qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga muljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma`qullanishi lozim;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek xar chorakda uning xisobotlarini eshitib borish;
- Jamiyat ijro etuvchi organining faoliyatiga daxldor xar qanday xujjatlardan belgilangan tartibda erkin foydalanish va Jamiyat Kengashiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ushbu xujjatlarni ijro etuvchi organdan olish. Jamiyat Kengashi va uning a`zolari olingan xujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
- Zaruriyat tug`ilganda Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baxolash uchun tanlov asosida mustaqil tashkilotni jalb etish;
- Jamiyat biznes-rejasida belgilangan maqsadlarga erishishni monitoring qilish;
- Korporativ boshqaruv kodeksi bajarilishini nazorat qilish;
- Jamiyatning taftish komissiyasi a`zolariga to`lanadigan xaq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- Jamiyatning aksiyadoriga dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan xolatlarda bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

48. Jamiyat Kengashi faoliyatining tartibi Jamiyat Kengashi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi. Jamiyat ustaviga taftish komissiyasi, Kengash va Boshqaruv a'zolari soni o'zgarishi bilan bogliq o'zgartirishlar Kengash yigilishini o'tkazmasdan aksiyador tomonidan kiritiladi.

49. Jamiyat Kengashining vakolati doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Boshqaruviga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

50. Jamiyat Kengashi qarorlari, qonunchilikda va mazkur Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bulsa, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

51. Jamiyat Kengashining yigilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

52. Jamiyat Kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

53. Jamiyat Kengashi raisi Kengash tomonidan qaror qabul qilish paytida, agar ovozlar soni teng bo'lib qolsa, hal qiluvchi ovozga ega buladi.

VIII- Bo'lim. Jamiyat Boshqaruvi.

54. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik Jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi - Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

55. Jamiyat Boshqaruvi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- temir yo'l transporti tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish kontseptsiyasini ishlab chiqish;
- temir yo'l transportini iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari loyihasini ishlab chiqish;
- Jamiyatning biznes-rejasini ishlab chiqish;
- Jamiyatning harakatlanuvchi tarkibi, mashinalar, mexanizmlar va boshqa maxsus texnikaga, hamda ularni sotib olish uchun mablag'larga ehtiyojini, shuningdek markazlashtirilgan va boshqa manbalar hisobidan, hamda investitsiya dasturlari hisobidan moliyalashtiriladigan temir yo'l transporti infratuzilma

ob'ektlari qurilishlari bo'yicha va qurilish-montaj ishlariga yo'naltiriladigan kapital mablag'lar hajmini aniqlash;

- moliyaviy-iqtisodiy ishlarni tashkil etish va Jamiyat tashkiliy tuzilmasiga kiradigan bo'linma, korxonalar, tashkilot va muassasalarni moliyalash;

- davlatning ichki temir yo'l tarmog'ida va aralash tashishlarda yuk, yo'lovchi, pochta, bagaj va yuk bagaj tashish, shuningdek temir yo'l xizmatlari kursatilganligi uchun qo'shimcha yig'imlar tariflarini ishlab chiqish. Ushbu tariflarni tasdiqlash va yig'imlar olish tartibini ishlab chiqish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 23 oktyabrdagi 232-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining temir yo'l Ustaviga va "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi;

- kapital mablag'lar, ilmiy tadqiqotlar va umumiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa ishlarni moliyalashtirish uchun markazlashtirilgan fondlar va zaxiralarni shakllantirish;

- temir yo'l ma'muriyatlari, yuk jo'natuvchilar, yuk oluvchilar va ekspeditorlik tashkilotlarining tegishli murojaatlariga asosan, hamda iqtisodiy maqsadga muvofiqlikidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab temir yo'l transportida yuklarni tashishga imtiyozli tariflar taqdim etish;

- belgilangan tartibda Jamiyat tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi korxonalar, tashkilotlar, muassasa va boshqa tuzilmalarni tashkil etish, qayta tuzish va tugatish bo'yicha takliflar tayyorlash, ularning vakolatlarini belgilash;

- Jamiyat mulkini, shuningdek tarkibiy aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqarish;

- Jamiyat aksiyador yoki ulushdor sifatida ishtirok etuvchi yuridik shaxslar ustav fondiga qo'shimcha xissa qo'shish, ushbu yuridik shaxslar ustav fondidagi ulushini oshirish yoki kamaytirish, ularning tarkibidan chiqish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qiymati Jamiyat sof aktivlari qiymatining 15 foizigacha bo'lgan bitimlarni tuzish, bunday masalaning yechimi Jamiyat Boshqaruvining bir ovozdan qabul qilgan qarori asosida hal etiladi. Bunday yirik hajmdagi bitim tuzish yuzasidan Jamiyat Boshqaruvida yakdil qarorga erishilmasa, ushbu bitimni tuzish Jamiyat Boshqaruvi qaroriga ko'ra ko'rib chiqib hal etish uchun Jamiyat Kengashiga havola etilishi mumkin;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarori yoki topshirig'iga muvofiq, Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bogliq bitimlarni tuzish;

- Jamiyatning formal kiyim va ajratib turadigan nishonlarni olish va Kiyish huquqiga ega bo'lgan xodimlari lavozimlari ro'yxatini tasdiqlash;

- Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- Jamiyat korxonalari va tashkilotlarining moliyaviy-xujalik faoliyatiga oid yillik hisobotlarini va balanslarini tasdiqlash;
- Jamiyat tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilot, muassasa, korxonalarni sotish shartlari va tartibini kurib chiqish yuzasidan Jamiyat Kengashiga takliflar tayyorlash;
- Jamiyat Kengashiga, keyinchalik takliflar kiritish uchun, temir yo`l transporti masalalari bo`yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish masalalarini ko`rib chiqish;
- Jamiyat asosiy faoliyati bo`yicha korxonalar va tarkibiy bo`linmalari, ijtimoiy soha muassasalarining smeta xarajatlarini tasdiqlash;
- Jamiyatning lokal hujjatlarini tasdiqlash;
- Jamiyat xodimlari mehnatiga haq to`lash shakllari, tizimlari va miqdorlarini tasdiqlash, shuningdek xodimlarni xo`jalik faoliyati yakunlariga ko`ra rag`batlantirish to`g`risidagi takliflarni ko`rib chiqish va tasdiqlash.

56. Jamiyat Boshqaruvi belgilangan tartibda Jamiyatning ijro etuvchi apparati tashkiliy tuzilmasi bo`yicha taklifni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi, bunda boshqaruv xodimlarining belgilangan soni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan tasdiqlanadi.

57. Jamiyat Boshqaruvi raisi rahbarlik qiladigan ijro etuvchi apparat ekspluatatsiya, ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa turdagi Jamiyat aksiyadori, Kengashi vakolatiga kirmaydigan faoliyatiga oid masalalar bo`yicha qarorlar qabul qiladi.

IX- Bo`lim. Jamiyat Boshqaruvi raisi.

58. Jamiyat Boshqaruvi raisi:

- Jamiyat faoliyatiga rahbarlik qiladi, Jamiyatga yuklangan vazifalarning bajarilishi, hamda mazkur Ustavga rioya qilinishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi;
- Boshqaruv a`zolari o`rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- Jamiyat faoliyatiga oid masalalarni hal etishda ularning vakolatlarini belgilaydi;
- Jamiyat aksiyadori, Kengashi va Boshqaruvi qarorlarining ijro etilishi yuzasidan nazoratni ta`minlaydi;
- zarur hollarda Jamiyatning ijro etuvchi apparati tarkibiga, mintaqaviy temir yo`l tarmoqlari boshqaruv apparatining va Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi boshqa korxonalar, tashkilot va muassasalari tarkibiga boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida uzgartirishlar kiritadi;
- ijro etuvchi apparatining boshqarmalari, markazlari va bo`limlari to`g`risidagi Nizomlarni tasdiqlaydi;

- Jamiyat mablaglarini belgilangan tartibda, ishonchnomasiz tasarruf etadi, banklarda hisob va boshqa raqamlar ochadi, Jamiyatning hisob-kitob hujjatlari va hisobotlarini imzolaydi, O`zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa yuridik va jismoniy shaxslari bilan, hamda undan tashqaridagi munosabatlarda Jamiyat nomidan ish yuritadi, Jamiyat nomidan kelishuvlar, shartnomalar, kontraktlar va boshqa bitimlar tuzadi, bunday bitimlarni amalga oshirish uchun ishonchnomalar beradi;
- Jamiyat aksiyadori, Kengashi va O`zbekiston Respublikasi Xukumatiga ko`rib chiqish uchun Jamiyat vakolati doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan qonun hujjatlari va boshqa me`yoriy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda kiritadi;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, markazlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tarkibiy bo`linmalar Ustavlari va Nizomlarini tasdiqlaydi;
- Jamiyatning barcha mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi shart bo`lgan buyruqlar, farmoyishlar, ko`rsatmalar chiqaradi, shuningdek o`zining vakolati doirasiga kiruvchi masalalarga oid yo`riqnomalarni va boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar rahbarlari chiqargan amaldagi O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek Ustav va Jamiyat boshqaruvi qarorlariga zid bo`lgan buyruqlarni va boshqa hujjatlarni bekor qiladi;
- Jamiyat va uning korxonalari ishlab-chiqarish, moliyaviy istiqbol rejalarining asosiy ko`lamlarini, Jamiyatning ijro etuvchi devoni, hamda Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar, muassasalar, tarkibiy bo`linmalar shtatlari jadvallarini tasdiqlaydi;
- Jamiyatni rivojlanishi uchun zarur mitqdordagi foyda olish choralarini kuradi;
- Boshqaruv majburiyati va Jamiyatning biznes-xavfini sug`urtalashni ta`minlaydi;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, markazlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tarkibiy bo`linmalar rahbarlarini belgilangan tartibda tayinlaydi;
- Jamiyatning ijro etuvchi devoni, korxonalar va tashkilotlar xodimlari lavozimlari nomenklaturasini tasdiqlaydi va unga muvofiq ularni ishga qabul qilish, ish joyini o`zgartirish, boshqa ishga o`tkazish, hamda mehnat shartnomalarini bekor qilishni amalga oshiradi;
- Jamiyatning boshqa tarkibiy bo`linmalari va ishlab chiqarish birliklarining o`zaro samarali hamkorligini ta`minlaydi;
- Jamiyat xodimlariga nisbatan amaldagi qonunchilikda va Jamiyat xodimlarining intizomi haqidagi nizomda nazarda tutilgan intizomiy jazo choralarini qo`llaydi;

- xodimlarni mukofotlash to`g`risidagi nizomni tasdiqlaydi, lavozim bo`yicha ish haqlarini, ularga ustamalarni, turli qo`shimcha to`lovlarni belgilaydi, Jamiyat xodimlarini rag`batlantiradi, shuningdek, Jamiyat xodimlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida kompensatsiya tulovlarini joriy etadi;
- Jamiyatning ilg`or xodimlarini belgilangan tartibda ko`krak nishonlari, faxriy yorliqlar bilan mukofotlaydi va rag`batlantirishning boshqa turlarini qo`llaydi;
- Jamiyat ishchilarini ijtimoiy kafolat, mehnat muhofazasi va sanoat xafvsizligiga rioya qilinishini ta`minlaydi;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalarining moliyaviy-xujalik faoliyati holati uchun mas`ul hisoblanadi, hamda ulardagi moliyaviy barqarorlikni ta`minlashga yo`naltirilgan zarur choralarini ko`radi;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalarining moliyaviy-xo`jalik faoliyatini tekshirish to`g`risida qaror qabul qiladi, ularning natijalarini ko`rib chiqadi va ular yuzasidan, hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha qarorlar qabul qiladi va zarur choralar ko`radi;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning boshqaruv organlarida o`z vakillarining Jamiyat nomidan ovoz berishida ularning pozitsiyasini belgilab beradi;
- Jamiyat tomonidan amaldagi qonunchilik, lokal va me`yoriy xujjatlarga rioya etilishini ta`minlaydi.

X- Bo`lim. Jamiyatning mulki, vositalari va sarmoyalari.

59. Jamiyatning mulki egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob`ektlari bo`la oladigan moddiy ob`ektlar, shu jumladan pul mablag`lari, qimmatli qog`ozlar, ulushlar (paylar, xissalar) xamda nomoddiy ob`ektlaridan iborat bo`ladi;

60. Jamiyat uzining mustaqil balansida xisobga olinadigan aloxida mulkiga ega bo`ladi. Jamiyat o`z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarga egalik qilishi va ularni amalga oshirishi, majburiyatlar bo`yicha javob berishi, suda da`vog`ar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

61. Jamiyat mulki quyidagi manbalar xisobidan shakllanadi:

- maxsulotlarni sotishdan, ish va xizmat ko`rsatishdan, shuningdek xo`jalik faoliyatining boshqa turlaridan olinadigan daromadlar;
- sotib olingan qimmatbaxo qog`ozlardan tushgan daromadlar;
- ustav kapitalida ulushga ega bo`lgan nodavlat mulkchilik shaklidagi sub`ektlar foydasidan, shuningdek dividendlar tarzida olinadigan daromadlar;
- markazlashgan va markazlashmagan ajratmalar va mablaglar;
- O`zbekiston Respublikasi Qonunchiligi tomonidan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

62. Jamiyatning daromadi barcha turdagi tashishlar, bajariladigan ish va xizmatlar, shuningdek Jamiyatning tarkibiy bo`linma va korxonalarining

maxsulotini sotishdan tushadigan tushumlardan markazlashgan tartibda shakllanadi.

63. Jamiyatning tarkibiy bo`linmalari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o`rtasida tekinga (begaraz) beriladigan (olinadigan) mol-mulkning qiymati daromad (zarar) deb xisoblanmaydi va qabul qilib oluvchi (beruvchi) tomonidan qo`shimcha qiymat solig`i va daromad solig`i buyicha soliqqa tortilmaydi.

64. Jamiyat korxonalari o`rtasidagi ichki ko`chirishlar (o`tkazishlar), tashish jarayonini ta`minlash bilan bog`liq ish bajarish, xizmat ko`rsatishlar maxsulot sotish (ish, xizmat)dan olinadigan daromad (aylanma) sifatida qaralmaydi.

65. Jamiyat o`z tasarrufidagi bo`lgan mulk va mabla`lardan barcha korxonalarining manfaatlarini ko`zlab foydalanadi. Belgilangan tartibda qurishi, qayta tiklashi, sotib olishi, ko`chma va ko`chmas mulkni xarid qilishi, olishi, ijaraga olishi va berishi (ijaraga berilayotgan mulkning ijara xaki yuz foiz miqdorida ushbu mulkni balansida saqlovchi korxonaning xisob raqamiga tushadi), xamda qonun xujjatlariga zid bo`lmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin.

66. Yangi va mavjud temir yo`l liniyalari, temir yo`l transporti ob`ektlarini qurish, xamda rekonstruktsiya qilish, faoliyat yurituvchi korxonalarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish va texnika bilan qayta jixozlash, xarakatlanuvchi tarkibni sotib olish, xizmat muddatini uzaytiruvchi mukammal qayta tiklash, ta`mirlash O`zbekistan Respublikasining investitsiya dasturi va Jamiyatning o`z mablag`lari, xamda boshqa moliyalash manbalari xisobidan muljallangan manzilli qurilishlar dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

67. Jamiyat faoliyati natijalari bo`yicha olingan foyda (daromad), soliqlar va byudjetga to`lanadigan boshqa to`lovlar amalga oshirilgandan so`ng, Jamiyat aksiyadori qaroriga muvofiq taqsimlanadi.

68. Jamiyat va uning tarkibiy bo`linmalari quyidagi xuquqlarga ega:

- O`zlari ro`yxatga olingan manzillar bo`yicha pul mablag`larini saqlash va barcha turdagi xisob-kitob, kredit xamda kassa operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida istalgan bankda xisob-kitob raqamlari va boshqa raqamlar ochish;
- markazlashtirilgan kapital mablag`larini moliyalashtirish, ijtimoiy soxa va o`quv muassasalariga ega bo`lish, korxonalariga moliyaviy yordam ko`rsatish va shunga o`xshash boshqa maqsadlar uchun Jamiyat Markaziy Jamg`armasiga sof foyda xisobidan (soliqlar to`langandan so`ng) pul mablag`larini jamg`arish va berish;
- Jamiyat bo`linmalarida mukammal ta`mirlash ishlarini bajarish va aloxida extiyojlar uchun (II gurux extiyot materiallarini saqlash) mablag`lar zaxirasini yaratish.

XI- Bo`lim. Hisobga olish, xisobot berish va nazorat.

69. Jamiyat va uning bo`linmalari buxgalteriya xisobining Milliy andozalariga muvofiq tezkor va buxgalteriya xisobini yuritadi, shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya va statistika xisobotlarini tuzadi.

70. Jamiyat korxonalarini belgilangan tartibda Jamiyatga, soliq va boshqa davlat idoralari amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq o`zining moliyaviy-xo`jalik faoliyati natijalari xaqidagi zarur ma`lumotlarni taqdim etadi.

71. Jamiyat tarkibiga kiruvchi xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyati yuzasidan nazorat ichki va tashqi audit shaklida amalga oshiriladi.

72. Aksiyador tomonidan saylanadigan taftish komissiyasi Jamiyatning moliyaviy-xo`jalik faoliyatini nazorat qiladi va moliyaviy xisobotlarda aks etgan ma`lumotlarni to`g`riligi bo`yicha xulosa, shuningdek moliyaviy-xo`jalik faoliyatini amalga oshirishda, buxgalterlik xisobini olib borish tartibi va moliyaviy xisobotni taqdim qilishda qonunchilikni buzish xolatlari to`g`risidagi ma`lumotlarni Jamiyat aksiyadoriga taqdim etadi.

73. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar moliyaviy-xo`jalik faoliyatining ichki auditi, ular tomonidan mulk va mablag`lardan maqsadli foydalanishini tekshirish, shuningdek Jamiyat ijro organining ishini nazorat qilish va baxo berish Jamiyatning ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

74. Jamiyat va uning korxonalarini moliyaviy-xo`jalik faoliyatining tashqi auditi, amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq, shartnoma asosida auditorlik tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

75. Jamiyat buxgalteriya xisobining tashkil etilishi, uning xolati va xaqqoniyligi, yillik xisobot va boshqa moliyaviy xisobotlarning tegishli idoralarga o`z vaktida taqdim etilishi, shuningdek Jamiyatning faoliyati xaqida kreditorlarga va ommaviy axborot vositalariga taqdim etilgan ma`lumotlar uchun amaldagi qonun xujjatlariga muvofik ravishda Jamiyatning ijro etuvchi organi mas`uldir.

76. Ko`rsatilgan xujjatlarni e`lon qilishdan oldin Jamiyat, yillik moliyaviy xisobotlarni tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning korxonalarini bilan mulkiy manfaatlar bilan bog`liq bo`lmagan auditorni jalb etishi shart.

77. Jamiyat:

- Belgilangan tartibda ro`yxatga olingan Jamiyat Ustavini, xamda Ustavga kiritilgan o`zgartirish va qo`shimchalarni, Jamiyatning tuzilishi va qayta tashkil etilishiga doir xujjatlarni, Jamiyatning davlat ro`yxatiga olinishi xaqidagi guvohnomani;
- Jamiyatning o`z balansida bo`lgan mulkka egalik xuquqini tasdiqlovchi xujjatlarni;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar va bo`linmalar, Jamiyat filiallari va vakolatxonalarini xaqidagi nizomlarni;
- Jamiyat aksiyadori, Kengashi va Boshqaruvi majlislarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat Boshqaruvining buyruq va farmoyishlari;

- Davlatning tegishli organlariga taqdim etiladigan Jamiyatning moliyaviy xisobotlari;
- xay'atlar, auditorlik tashkilotlari, davlat nazorat idoralarining xulosalari va xisobotlarini;
- Jamiyat Ustavida, Jamiyat boshqaruvi organlari qarorlarida, xamda qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlarni o`zida saqlashi shart.

XII-Bo`lim. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish.

78. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.